

Aholini ro'yxatga olish: uning mohiyati nimada?



aholini ro'yxatga olish tadbiriga puxta tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Aholini ro'yxatga olish: uning mohiyati nimada?

Tasavvur qiling, qo'lingizda O'zbekiston xaritasi va unga qarab hududlarga doir birlamchi ma'lumotlarni aytish mumkin. Masalan, Surxandaryoda qancha aholi yashaydi, Surxandaryoda bandlik masalasi qay ahvolda, Surxandaryoda nechta ta'lim muassasasi bor, Surxandaryoda aholi zichligi qanday va shunga o'xshash boshqa muhim ma'lumotlar. Biroq bunday yuzaki va taxminiy ko'rsatkichlar bilan bugungi jadal rivojlanish va islohotlar davrida uzoqni ko'zlab nimanidir reja qilish qiyin, albatta.

Aksincha, qo'limizda har bir hududga doir aniq faktlar bo'lsa, rejalarimiz ham, amallarimiz ham manzilli va puxta bo'ladi. Aynan shuning uchun bizga butun respublikani qamrab oladigan ishonchli ma'lumotlar kerak va ular tadrijiy ravishda yangilanib borilishi shart. Bunday aniq va yaxlit ma'lumotlar esa aholini ro'yxatga olish asosida olinadi. Shunga qarab o'tmish va bugun haqida fikr-mulohaza yuritish hamda kelajakni farazlash mumkin. Shuningdek, bu aholining yoshi, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumot darajasi, oilaviy holati, bandligi va boshqa tavsiflari haqida ma'lumot olishning yagona manbai hamdir.